Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada, raqamli iqtisodiyotning ahamiyati, joriy etishdagi muammolar, imkoniyatlari, yechimlari, yoshlar bandligini ta'minlash, kambag'allikni tugatish choralar, mahalliy va xorij mamlakatlari xalqlariga yil davomida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishning imkoniyatlari, yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, infratuzilma sohasida bandlik masalalarini hal qilish bilan bog'liq yo'naliishlar aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tarmoqlarda faol tadbirdorlikni, haqiqiy ishbilarmonlikni, xalq manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'ymaydigan biznesmenlar sonini ko'paytirish, 2021–2022-yillar yakunlari bo'yicha ilmiy-amaliy iqtisodiy tahlil natijalarini taqqoslash, raqamli iqtisodiyotni jorish etishdagi xorijiy mamlakatlar tajribalari hamda ular ishtirokida qo'shma dastur va qo'shma korxonalar tashkil etish imkoniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashdagi "Buyurtma stol"larining o'rni, ilmiy izlanishlar, "Dala-dasturxon", "Baza-qurilish obyekti", "Dala-magazin-iste'molchi", "Dala-iste'molchi"; "Veterinariya aptekasi-chorvachilik majmuasi", "Dala-chorvachilik majmuasi" kabi infratuzilma xizmatlarini tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimlari, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sohasidagi o'zgarishlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar ko'satiladi. Viloyat va ayrim tumanlar misolida iqtisodiy tahlil natijalari keltirilgan. "Raqamli iqtisodiyot"ni Samarqand viloyatida rivojlanishdagi muammolar va ularning yechimi. Maqolada xulosa va takliflar hamda foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, sublimatsiya, 5 yoshgacha, muammo, imkoniyat, ATTO, validator, xilorello, "Buyurtma stoli", "Dala-uy", rentabellik darajasi va boshqalar.

Abstract: In this scientific article, the importance of the digital economy, its implementation problems, opportunities, solutions, ensuring youth employment, measures to end poverty, opportunities to supply food products to the people of local and foreign countries throughout the year, directions related to vocational training of young people, solving employment issues in the infrastructure sector, sustainable provision of agricultural products to the population and increasing economic efficiency, increasing the number of businessmen who do not put their own interests above the interests of the people, active entrepreneurship in the industry, real business entrepreneurship, Comparison of the results of scientific and practical economic analysis by the end of 2021–2022, the experiences of foreign countries in developing the digital economy and the possibilities of establishing joint programs and joint enterprises with their participation, improving the socio-economic situation.

The role of "order desks", scientific research, "Field-programmer", "Base-building facility", "Field-store-consumer", "Field-consumer"; Problems in the organization of infrastructure services such as "Veterinary pharmacy-livestock complex", "Field-livestock complex" and their solutions, changes in the field of small business and private entrepreneurship, scientific and practical recommendations and suggestions.

The results of the economic analysis are presented on the example of the province and some districts. Problems in the development of "digital economy" in Samarkand region and their solutions. The article contains conclusions and proposals and a list of used literature.

Key words: digital economy, sublimation, under 5 years, problem, opportunity, ATTO, validator, xylorello, "Order table", "Field house", profitability level, etc.



Аннотация: В данной научной статье рассматривается значение цифровой экономики, проблемы ее реализации, возможности, решения, обеспечение занятости молодежи, меры по искоренению бедности, возможности поставок продуктов питания жителям отечественных и зарубежных стран в течение года, обучение молодежи профессий, решение вопросов занятости по направлениям инфраструктурного сектора, связанным с устойчивым обеспечением населения сельскохозяйственной продукцией и повышением экономической эффективности, активное предпринимательство в отраслях, реальном бизнесе, увеличение количества предпринимателей, не ставящих собственные интересы выше интересов народ, сравнение результатов научно-практического экономического анализа на конец 2021–2022 годов, цифровая экономика, опыт зарубежных стран в развитии и возможности создания совместных программ и совместных предприятий с их участием, роль “Столок заказа” “В улучшении социально-экономической ситуации проводятся научные исследования “Поле-дастурхан”, “База-строительный объект”, “Поле-журнал-потребитель”, “Поле-потребитель”; Проблемы организации инфраструктурных служб типа “Ветеринарный аптечно-животноводческий комплекс” и “Полевой животноводческий комплекс” и их решения, изменения в сфере малого бизнеса и частного предпринимательства, научно-практические рекомендации и предложения. Результаты экономического анализа представлены на примере области и некоторых районов. Проблемы развития “цифровой экономики” в Самаркандской области и пути их решения. В статье содержатся выводы и предложения, а также список использованной литературы.

Ключевые слова: цифровая экономика, сублимация, до 5 лет, проблема, возможность, АТТО, валидатор, ксило-репло, “Стол заказов”, “Полевой дом”, уровень рентабельности и др.

KIRISH

2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”, deb tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020-yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e'lon qilgan edi.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'satish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF -6079- sonli Farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'l'm, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi aytilgan. Elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangangi ta'kidlangan edi. Raqamli iqtisodiyotning xarakterli belgilari shundan iboratki, bu iqtisodiyotda asosiy resurs bo'lib an'anaviy resurslar(kapital, mehnat,yer va boshq) emas balki ilm, ma'rifat bilan sug'orilgan, ilm sig'imi yuqori bo'lgan axborot oqimlari va ularning innovatsiyalardagi ko'rinishi barqaror iqtisodiy o'sish omiliga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda iqtisodiy o'sishda moddiy resurslar emas, balki nomoddiy resurlar (axborot, ilm va ixtiolar, innovatsiyalar) ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, pedagog-olimlar, faol tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qilgan (“Raqamli dividendlar”) [2]. Dunyodagi 242 ta mamlakat shundan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar 20 tani tashkil etsa[8], raqamli iqtisodiyoti rivojlangan dunyo davlatlari Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanar ekan. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi [10]. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy elementlari sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron to'lovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'rildi. Har bir mahsulot inson salomatligini yaxshilashda o'z o'rniga egadir. Barcha sohalardagi muammolarni hal qilish kadrlarga bog'liq bo'ladi.

Metodlar: Maqolani tayyorlashda monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar ishlataldi.



TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlashmoqda va rivojlanmoqda. Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotni joriy etishda quyidagi kamchiliklarga e'tiborni qaratish mumkin, ular quyidagilar:

- kishilarning bu sohani to'la tushunib yetmasligi;
- joylardagi ayrim menejer va xodimlarning raqamlashtirish tizimiga qarshiligi;
- tarmoqlardagi yakka hokimlik;
- ko'pgina hududlarda internet tezligining pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonununchilikdagi orqada qolishlik;
- joylarda raqamlashtirish ishlarini targ'ibot qilinishining sustligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining pastligi;
- qonunchilikda va uni amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash;
- axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- menejment organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;
- ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi(yoki rivojlanishdan to'xtab qolganligi).

Mahalliy hamda xorijiy tajribalarga asoslanib mamlakatimizda faol tadbirkorlik yo'naliishida ham ko'pgina dasturlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirishga oid 400 dan ziyod qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan, shundan oxirgi ikki yilda 200 ga yaqin. 2011-yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" yili deb e'lon qilingan bo'lsa, 2018-yilga yurtimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili", deb nomlandi. Ushbulardan kelib chiqib, tadbirkorlik va faol tadbirkorlikga quyidagicha ta'rif berdi. Faol tadbirkorlik – bu innovatsion g'oyalar, texnika va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga tashabbus bilan harakat qiluvchi mulkchilikning har xil turlarida va shakllarida mehnat qilayotgan sog'lom, ma'naviy-ma'rifiy yetuklikka intiluvchi, ongli mehnati bilan atrofidagi kishilarga nisbatan o'zining ilmiy-amalii salohiyoti, vatanga, borliqqa, qariyalarga, nogironlarga va boshqa muhitojlarga mehr beruvchi, tajribasi, asosli tavakkalchiligi yo'naliishlarini hayotda qo'llab kelayotgan, tabiat va jamiyat qonunlaridan to'g'ri foydalanaoladigan, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy (jumladan, farosatli), yekologik dunyoqarashni o'zida mujassamlashtirgan va boshqalarga qaraganda ijobjiy ustunlikka erishib kelayotgan zamon kutgan kishidir [8].

2024-yilda Kanadaga mehnat resurslarini jo'natish uchun tanlov boshlandi. 2021-yilda bandlikni ta'minlash maqsadida 172 nafar yurtdoshimiz ishlash uchun davlat yo'li bilan Janubiy Koreyaga yuborildi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va xorijiy davlatlar ish beruvchilari o'rtaida pandemiya davrida O'zbekiston fuqarolarini ish bilan ta'minlash bo'yicha olib borilgan muzokaralar natijasida turli davlatlarda ko'plab bo'sh ish o'rinnari taklif etilib, ularga yurtdoshlarimizni ishga jalb qilish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. Shuningdek, Agentlik tomonidan Janubiy Koreya Respublikasining Inson resurslarini rivojlantirish xizmati bilan olib borilgan muzokaralar natijasida ushbu davlatda ishlash vaqtida mehnat ta'tili olib, O'zbekistonga kelgan 23 nafar, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Koreya Respublikasi Kanvondo provinsiyasi, Yanggu okrugi administrasiysi o'rtaida tuzilgan kelishuvga asosan Ye-8 vizasi bo'yicha 5 oylik mavsumiy ishlarda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun 149 nafar fuqaro Toshkent xalqaro aeroportidan charter reys orqali Janubiy Koreya Respublikasiga ishga yuborildi [10].

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, nobudgarchilikga yo'il qo'yagan holatda ularni is'temolchilarga yil dovamida "Buyurtma stol" lari orqali ham yetkazib berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, Samarqand shahrida hozirgi Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (sobiq, qishloq xo'jalik instituti) olim – pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy – amaliy tavsiyalar joriy etilib, 1989-1991-yillarda mavsumiy faoliyat ko'rsatib, meva-sabzavod bilan savdo qiluvchi magazinlardagi tovar aylanmasi 1,2 dan 1,5 baraborgacha oshgan edi. Lekin, yangi davrga kelib ushbu buyurtma stoli faoliyati vaqtinchalik to'xtab qoldi. Shu boisdan qishloq xo'jalik mahsulotlarini, shu jumladan, sabzavotlarni "Dala-uy", "Dala-magazin-uy", "Magazin-is'temolchi" shakllarida xo'jalik hisobida ishlaydigan xizmat jamoalarini yuqorida keltirilayotgan ilmiy-amalii tavsiya asosida tashkil qilinsa va uning faoliyati raqamlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlardagidek infratuzilma yo'naliishlarini takomillashuviga imkon yaratiladi [8]. Yaponiya mamlakatining poytaxti Tokio shahrida aholidan tushgan buyurtma shaharning qaysi hududida bo'lishidan qat'iy nazar 12 daqiqada, Kanada mamlakatining poytaxti Ottovoda esa 10 daqiga ichida buyurmachining manziliga yetkazilar ekan [8,10]. Ulardagi "Buyurtma stol" faoliyati raqamlashtirilgandir, ya'ni naqd pulsiz buyurtmalar amalga oshiriladi. Natijada korrupsiyaning oldi olinadi. Xizmatning shunday shakli Samarqand shahrida uch yil davomida mavsumiy xislatga ega bo'lsa-da, tajribadan o'tgan va o'zining ayrim ijobjiy natijalariga ega bo'lgan edi.



TAHLILLAR

2021-yilda Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) hajmi 53 749,9 mlrd.so'mni tashkil etgan holda o'tgan yilgi mos davrga nisbatan 8,8 foizga o'sgan, shuningdek, respublika yalpi ichki mahsuloti (YAIM) tarkibida viloyatning hissasi 7,3 foizni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM hajmi esa 13 472,8 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davrga nisbatan 6,7 foizga oshgan. YAHM tarkibida sanoat ulushi qurilishni qo'shgan holda 20,8 foiz (2020-yilda 20,7 foiz), qishloq xo'jaligi ulushi 44,9 foiz (2020-yilda 45,5 foiz) va xizmat ko'rsatish ulushi 34,3 foiz (2020-yilda 33,8 foiz)ni tashkil qilgan. Viloyatda o'tgan yili ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 22 803,3 mlrd.so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 10,8 foizga oshgan. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 5,0 foizni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 5 715,8 ming so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 8,6 foiz o'sish kuzatilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 17 722,8 mlrd.so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 12,0 foizga o'sish qayd etildi.

Viloyatda 14 375,8 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan 12,8 foizga o'sgan. Respublika iste'mol tovarlarida viloyatning ulushi 9,5 foiz ni tashkil qilgan. 2021-yilda Samarqand shahrida "Pandemiya sharoitida iqtisodiyot, moliya va boshqaruvda raqamli transformatsiya jarayonlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha respublikada 1- o'rinni egallagan, ya'ni, respublikada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 13,0 foizi (41 206,1 mlrd. so'm) viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 4,6 foizga oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi 10 328,6 ming so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 2,6 foizga o'sish kuzatilgan. Viloyatda tashkil etilgan qurilish ishlari hajmi 5 619,1 mlrd.so'm bo'lib, 2020-yilga nisbatan 7,9 foizga oshgan. Viloyatda qurilish ishlari hajmining respublika ko'rsatkichidagi ulushi 5,2 foizini tashkil qilgan. Viloyatda o'tgan yilda chakana savdo hajmi 21 004,2 mlrd.so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 11,7 foizga oshgan.

Chakana savdo tovar aylanmasining 80,4 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 12,1 foizga o'sgan. Samarqand viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 18 656,7 mlrd.so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 21,6 foizga oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 676,4 ming so'mni tashkil qilgan holda, 2020-yilga nisbatan 19,2 foizga oshgan. 2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 73,4 foizni tashkil etgan. Shuningdek, ushbu davrda 10,8 ming ta yangi kichik korxonalar va mikro firmalar tashkil qilindi, bu o'tgan davrga nisbatan 24,9 foizga ko'p demakdir. Tashqi savdo aylanmasi hajmi 1 920,9 mln. dollarni tashkil qilgan holda, 2020-yilga nisbatan 28,8 foizga oshgan.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining respublika jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 4,6 foizni tashkil qilgan. 2021-yilda jami amalga oshirilgan eksport hajmi – 530,6 mln.dollarni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 58,3 foizga oshgan. Import hajmida esa 2020-yilga nisbatan 20,2 foizga o'sishi kuzatilib, 1 390,3 mln.dollarni tashkil etgan. 2021-yilda Samarqand viloyatida chorvachilik tarmog'ida asalchilikdan yuqori daromad olindi va rentabellik darajasi 35,7 foiz bo'ldi. Pillachikda rentabellik darajasi 2021-yilda juda past bo'lib, 9,2 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik tarmog'ining polizchilik yo'nalishida 48,3 foiz rentabillik darajasiga erishildi, eng past ko'rsatkich moyli ekinlarda 12,5 foizni tashkil etdi [8].

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va tatbiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Masalan: Ovqatlanmoqchisiz, lekin uni tayyorlashga imkoniyatingiz yo'q, uyga mahsulotlar yoki ovqat yetkazib berishda "Magazin-uy" xizmat shaklidagi mulkchilikning turli shakllarida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik internet yoki "buyurtma stoli" telefoniga qo'ng'iroq qilib buyurtma bersangiz, muammo tezlikda hal bo'ladi. Bundan tashqari yana bir misol, jamoat transportida yurish uchun "TEZKARD" (o'z faoliyatini davom ettira olmadi), hozirgi vaqtida ATTO yagona transport to'lov kartochkasi yordamida avtobus, tramvaylarda mavjud bo'lgan "validator"lar orqali naqd pulsiz to'lovlarini amalga oshirasiz va telefon orqali mablag'in-gizni nazorat qilib borasiz. Bunday xizmat Samarqand shahrida besh yildan buyon amal qilib kelmoqda, lekin xizmat sifatidan darak yo'q. Ayniqsa, shahar ichida 20-marshrutda harakat qilayotgan avtobuslarda TEZKARD ham o'rnatilmagan edi, hozirgi ATTO yagona to'lov kartochkalari bo'yicha VALIDATORlar ham o'rnatilmagan. Bunga viloyat, shahar, avtobaza rahbarlari va mas'ullar raqamli iqtisodiyotni joriy etish jarayoniga qarashdilar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini afzallikkabi quyidagichadir: vaqt sarfi kamayadi; korrupsiyaning oldi olinadi; ishlab chiqarishda mehnat samaradorligi oshadi; subyektlarning raqobatbardoshligi o'sadi; ishlab chiqarishdagi xarajatlar kamayadi; yangi ish o'rinnari yaratiladi; mulkchilikning turli shakllari joriy etiladi; yangi zamonaliviy kasblar paydo bo'ladi; ijtimoiy tengsizlik yo'qoladi; kambag'allik kamayadi, menejerlar va vositachilar soni ham kamayadi; mamlakatimizning 2030-yilga borib dunyoning 50 ta rivojlangan mamlakatlari ichida bo'lishini ta'minlashga imkoniyatlar yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosalar:

- 1) Yuqorida qayd etilgan subyektlar faoliyatlarida iqtisodiy samaradorlik tahliliy natijalari talab darajasida o'rganilmayapti. Jumladan, 2022-yilda Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida eng past rentabellik darajasi eng past bo'lgan o'simlikshunoslik tarmog'iда moyli ekinlarda 17,8 foizni, chorvachilikda pillachilikda va asalarichilikda 12,0 foizni tashkil etdi[9]. 2021-yilda Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida eng past rentabellik darajasi pillachilikda-9,2 foizni tashkil etadi; yog'li o'simliklarda-12,5 foizni.
- 2) Iste'molchilarga xizmatning (infratuzilmaning) "Buyurtma stoli" shaklidagi yo'nalishi joylarda tashkil etilmayapti.
- 3) Oziq-ovqat xavfsizligini amalga oshirishda real biznes-rejalar iqtisodiy raqamlashtirishni hisobga olmay tayyorlanyapti;
- 4) Raqamli iqtisodiyotning o'rni va joriy etishdagi imkoniyatlari amalga oshirishda, bo'sh ish joylari ayrim tashkilot va korxonalar tomonidan yashirin holatda saqlanmoqda;
- 5) obodonlashtirish rahbarlari va mas'ullari tomonidan sohani iqtisodiy raqamlashtirish talab darajasida emas;
- 6) Umumi ovqatlanish maskanlarining ko'pchiligidagi to'lovlar jarayoni raqamlashtirilmagan, soliq to'lovidan ochish, yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga imkoniyatlar yaratilmoqda, natijada muammoning, jumladan, talabalarning raqamli iqtisodiyotni joriy etishiga ishonchlari biroz yo'qolmoqda.

Takliflar:

- 1) Mamlakat hududlarida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi ustidan doimiy ravishda tegishli nazorat-monitoring olib borilishini yo'lga qo'yish;
- 2) Mulkchilikning har xil turlari va shakllarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan subyektlarda raqamli iqtisodiyotni tezkorlik bilan joriy etish;
- 3) Olim va pedagoglar ishtirokida ularning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida buyurtma stollari ishini qaytadan takomillashtirilgan holda tiklash;
- 4) Bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda mulkchilikning turli shakllarini joriy etishni dasturiy tarzda amalga oshirish;
- 5) "buyurtma stol" lari faoliyatiga raqamli iqtisodiyotni joriy etishda rivojlangan davlatlar bilan qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq va boshqalar;
- 6) Raqamli iqtisodiyotga o'tishning afzalliklari bo'yicha omma o'rtasida mutasaddilar va jamoat tashkilotlari vakillari tomonidan targ'ibot ishlarini olib borish;
- 7) Raqamli iqtisodiyotga oldinlar o'tgan tajribali rivojlangan mamlakatlarga, jumladan, Yaponiya, J.Koreya, Yaponiya, AQSH va boshqa mamlakatlarga shu sohada ishlayotgan mas'ullarni qisqa muddatga malakasini oshirishga yuborish va hokazo.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlanitarishning 2020–2030-yil-larga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5833-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanitarish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqoti 18-avgust 2023-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi, 2023-yil 15-may.
6. Salamov I.,Kazakova, Z.S., Nurmonov Sh.X. Menejment va marketing. Darslik. "Fan ziyosi " nashriyoti. –T.-2023, 252 betli.
7. Salamov I., Qudratov T.,Qudratova I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (ma'ruzalar kursi). 116 betli.Samarqand-2015
8. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari natijalari.
9. Samarqand viloyati qishloq xo'jalik va statistika boshqarmalarining 2021–2022-yillar yakunlari bo'yicha hisobotlari.
10. Internet ma'lumotlari va boshqalar.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.